ROMAN JANRINING VUJUDGA KELISHI VA TAKOMILLASHUVI

Xoliqova Iroda Norbutayevna
e-mail: irodaxoliqova88@gmail.com
ORCID: ORCID:0009-0005-3855-2665
telefon: +998-90-968-40-35

Annotatsiya: *Maqolada roman janri, uning o‘ziga xos xususiyatlari, jahon hamda o‘zbek adabiyotida ushbu janrning vujudga kelishi, nazariy jihatdan o‘rganilishi, shuningdek, ushbu janrda yaratilgan ilk asarlar mavzusi, ularning muvaffaqiyati hamda kamchiliklari mulohaza etiladi.*

Kalit so‘zlar: *roman termini, roman janri, roman janrining o‘ziga xos xususiyatlari, klassik adabiyot, realistik roman, milliy romanchilik.*

KIRISH

Roman janri o‘tmishning dolzarb voqea-hodisalarini, bugunning real ziddiyatlarini, shuningdek, inson his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq murakkab kechinmalarini aks ettiradi. U har bir davrning evrilishlariga moslashib, adabiyotdagi yangiliklarga muvofiqlasha oladigan, tezlik bilan o‘zgarishlarni o‘zida qabul etadigan murakkab hamda mukammal janrdir. Shunday ekan, uning tarixini o‘rganish xalq tarixini bilmoq bilan barobardir. Roman – [fr. roman “romane” – lotin tilida emas, roman tilida hikoya qilish] hajmi ancha katta, xilma-xil qahramonlar, sertarmoq syujetga ega bo‘lgan, odatda proza yo‘li bilan yoziladigan asar; adabiy janr turidir[1]. Umarali Normatovning fikriga ko‘ra, ushbu janr “Insoniyat yaratgan adabiy janrlar orasida eng universali, kanonlarni, milliy chegaralarni tan olmaydigan, betinim yangilanib, o‘zgarib borishga moyil, hamma davrlarga, oqimlarga moslasha oladi, millat adabiyotining bo‘y-basti, darajasi, avvalo, shu janr kamolotiga qarab belgilanadi”[2]. Haqiqatdan ham, jamiyatda ro‘y berayotgan katta o‘zgarishlarni qamrab olishga qodir yagona janr ham bu– roman.

ASOSIY QISM

Adabiyotda har bir janrning dunyoga kelishi va uning rivojlanishining o‘ziga xos va takrorlanmas yo‘llari bor. Har bir xalq hayotida qaysidir janr oldin, boshqa biri esa keyin vujudga kelgan. Bu o‘sha xalqning ijtimoiy hayoti, madaniy - estetik taraqqiyoti darajasi bilan bog‘liqdir.[3]

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Uchinchi jild. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B.391.
[2] Normatov U. Roman ko‘zgusida millat taqdiri. XX asr o‘zbek adabiyoti masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2012. – B.67.
[3] Mirvaliyev S. Nasr, davr va qahramon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – B.151.

Roman janrining kelib chiqishi haqida olimlar tomonidan turlicha qarashlar bildirilgan. М.Бахтин romanning ilk shakllarini xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘laydi va antik davr tadqiqotchisi Abbat Nietning ilmiy tadqiqotida “grek romani” atamasi qo‘llanganini ko‘rib, janrning ilk shakllari antik davrda vujudga kelganligini ta’kidlaydi. Ya’ni, M. Baxtin bu so‘zlari bilan mukammal roman janri haqida emas, balki “roman” terminining ilk bor ishlatilishini nazarda tutib aytganini tushunishimiz lozim. Ushbu janrni nazariy jihatdan o‘rganish tanqidchi N.S.Leytes ta’kidlaganidek, XVIII asrga to‘g‘ri keladi. Ya’ni, u roman janrining ilk nazariyotchisi sifatida XVIII asr nemis ma’rifatparvari F.Blankenburgni keltiradi.[4] V. Kojinov esa garchi Baxtin nazariyasiga yaqin fikr yuritsa-da, “roman so‘z san’ati sifatida ilg‘or estetlar tarafidan XIX asrning o‘rtalarida tan olindi”,[5] – deydi. E. Meletinskiy esa ushbu janrni nazariy tomondan dastlab XVII asrda, G. Filding, X. Viland hamda X.F. Blankenburglar tomonidan esa XVIII asrdagina chuqurroq o‘rganildi, degan xulosani keltiradi[6]. Umuman olganda yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning deyarli barchasi roman janrining embrion davri etib antik davrni olishgan. Tabiiyki, mavzular ko‘lami ham davrga mos ravishda edi. Ilk yaratilgan romanlarda ko‘proq jahongashtalik va qahramonlik, qahramonlar taqdirida yuz bergan kutilmagan sarguzashtlar yetakchilik qilardi. Masalan, miloddan avvalgi III-II asrlarda yaratilgan Apuleyning “Oltin eshak”, Longning “Dafnis va Xloya” romanlarida ko‘proq fantastik voqealar keltirilib, hayot haqiqatidan ancha uzoqda edi. N. Shukurov va boshqalar “roman” terminini dastlab G‘arbiy Yevropa adabiyotida taxminan XII-XIII asrlarda paydo bo‘lganligi haqida yozib, shaxsning jamiyatdan ajralib chiqishi, insonlarda individ hayotiga qiziqishning kuchayishi roman paydo bo‘lishiga olib keldi, degan xulosani beradi.

Dastlab Yevropada yashagan roman xalqlari (fransuz, italyan, portugal) yaratgan har qanday nasriy asar “roman” deb nomlangan. Ushbu so‘z fransuzcha “roman tillaridan birida yozilgan”, degan ma’noni anglatgan. Ushbu termin ma’lum bir asarning qaysi tilda yaratilganligini bildirgan. Adabiy janr sifatida esa keyinchalik qo‘llanilgan. Roman so‘zi Fransiyada XII asrda adabiy asarlarning sarlavhalarida paydo bo‘lganligini fransuz romanshunosi Pyer Deks ta’kidlagan. Ritsarlik sarguzashtlari hikoya qilinganligi sababli zamonlar o‘tishi bilan bu so‘z zamirida “ritsarlik qissasi” anglashilgan. Shunday tipdagi romanlar XII asrda Fransiyada, Germaniyada, XIV-XV asrlarda Angliyada tarqala boshladi. Shunday davrlar bo‘lganki, romanga “ertak” termini sifatida ham qarashgan. “Ming bir kecha” kabi folklor namunalariga ba’zan ertak, ba’zan roman sifatida baho berishgan. “Lanselot”, “Tristan va Izolda” singari ritsarlik romanlarida qahramonlik ruhiyatiga katta e’tibor

[4] Лейтес Н. Роман как художественная системаю – М.: Наука, 1971. – С.63.
[5] Кожинов В. Происхождение романа. – М: Наука. 1968. – С. 341.
[6] Мелетинский Е. Введенио в историческую поэтику эпоса и романа. – М.: Наука, 1986. – С.125.

berilgan. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, XV asrga qadar romanlar turfa xil ko‘rinishlarda rivojlangan.

XX asr jahon adabiyotshunosligi haqiqiy romanning ma’lum bir talablarini aytib o‘tdi. Xususan, amerikalik Uorren, Uellek, rossiyalik V.V.Kojinov, G.D.Gachev singari nufuzli adabiyotshunoslarning tadqiqotlaridan ma’lum bo‘lishicha, o‘zida voqealar tasviri bilan psixologik tahlil mutanosibligini mujassamlashtirgan nasriy asarlargina haqiqiy roman namunasi hisoblanadi. Ana shu kabi voqealar va xarakterlar rivojidagi mutanosiblikka yozuvchi Antuan de Prevoning “Kavaler de Griye va Manon Lesko tarixi” asarida erishilgan. Ushbu asar 1731-yilda Angliyada, 1733-yilda Fransiyada nashr etilgan bo‘lib, buyuk fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan ushbu asarni “hozirgi zamon romanining jozibador shakli”, deb atagan[7].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, roman janri har bir xalq adabiyotida o‘ziga xos tarzda rivojlanib, taraqqiy etib kelgani kabi, o‘zbek adabiyotida ham ushbu janrning vujudga kelishi borasida turlicha fikrlar ilgari surilgan. O‘zbek romani tarixi va tadriji haqida I.Sulton, M.Qo‘shjonov, S.Mamajonov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, N.Karimov, A. Rahimov, O.Sharafiddinov, H. Umurov kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Ba’zi olimlar o‘zbek adabiyotidagi roman janri o‘rta asrlardagi «Layli va Majnun», «Saddi Iskandariy», «Yusuf va Zulayho», «Tohir va Zuhro», «Oshiq G‘arib va Shohsanam», «Yusuf va Ahmad», «Kuntug‘mish», «Devonai Mashrab» kabi ishqiy-fantastik va sarguzasht asarlar ta'sirida paydo bo‘lgan degan fikrlarni ilgari surgan. Ayrim olimlar esa realistik romandagi voqelikni keng va batafsil tasvirlashga intilishni «Boburnoma»da ko‘rish mumkin, deydi. Adabiyotshunos olim S.Mirvaliyev: “O‘zbek adabiyotida realistik roman taraqqiyoti to‘rt manba: voqelik, xalq og‘zaki ijodiyoti, klassik adabiyotning boy an’anasi, shuningdek, rus, qardosh va jahon xalqlari romanchiligiga asoslangan”,[8] – degan qimmatli fikrni aytib o‘tadi. O‘zbek adabiyotida romanga ehtiyoj XIX asr so‘ngida tug‘ildi. Bu davrda O‘rta Osiyoda kapitalistik munosabatlar qaror topa boshlagan edi. Roman sohasidagi dastlabki izlanishlar ham shu davrdan boshlandi. Hamzaning «Yangi saodat»i ana shunday izlanish natijasi edi. Ayniy, M.Shermuhammedov, A.Qodiriy, Cho‘lpon, A.Qahhor, H.Shams va Oybek o‘zbek romanining dastlabki namunalarini yaratgan. Garchi roman janri G‘arb adabiyotining hosili bo‘lsa-da, ammo o‘zbek romani faqat tashqi ta’sir tufayligina emas, avvalo, hayotiy zaruriyat hamda milliy an’analar natijasi bo‘lib dunyoga keldi. Tashqi ta’sir esa ana shu ildiz va zaruriyatning shakllanishiga yordam berdi va ana shu jarayonni tezlashtirdi.

O‘zbek adabiyotida bugungi kundagi “roman” janrining vujudga kelishi milliy uyg‘onish jarayonlari davriga borib taqalib, bu Abdulla Qodiriy nomi bilan bog‘liqdir.

[7] Sodiq Sanjar. Ijodning o‘ttiz lahzasi. – Toshkent: Sharq, 2005. – B.174-176.
[8] Mirvaliyev S. O‘zbek romani. – Toshkent: Fan, 1969. – B.29.

1920-yilda o‘zbek milliy romanchiligi tarixiga asos solindi. Chunki o‘zbek adabiyotida roman janri talablariga javob beradigan ilk, yagona asar “O‘tgan kunlar” romani edi. Zotan, Fitrat ham roman yozish o‘ta mushkul ish ekanligini ta’kidlab, “O‘tgan kunlar”ni ilk o‘zbek romani sifatida e’tirof etadi[9]. Shuningdek, M. Buzruk ham o‘zining maqolasida o‘zbek adabiyotida roman janrining vujudga kelishi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Janr talablariga to‘la javob beradigan birinchi “original” roman “O‘tkan kunlar”dir. Ammo adabiyotimizda Qodiriygacha ham roman deb nomlangan asarlar bitgan ijodkorlar borligi haqida izoh berib ketishimiz darkor. Albatta, xulosalarimizni adabiyotshunoslarimiz keltirgan fikrlar bilan ochiqlashga urinamiz. Abdulla Qodiriydan avval Mirmuhsin Shermuhammedovning “Befarzand Ochildiboy” hamda Hamzaning “Yangi saodat” asarlari ham roman deb nomlangan. Lekin nega birinchi o‘zbek romani etib “O‘tgan kunlar” qabul qilingan? Quyida ushbu savolga javob berishga harakat qilamiz. Adabiyotshunos Uzoq Jo‘raqulov o‘zining “Nazariy poetika asoslari” kitobida o‘zbek adabiyoti tarixida “O‘tgan kunlar”ga qadar roman janri talabiga javob beradigan asar yo‘qligi, edi, “Befarzand Ochildiboy” va “Yangi saodat” asarlari esa roman janri talablariga javob bera olmasligi haqida fikr bildiradi[10]. D.Quronov esa ushbu asarlarni janr talablariga javob bergan bo‘lsa-da, ammo o‘sha davr uchun zamonaviy usulda yozilgan bo‘lib, aksariyat ommaning estetik didiga javob bermagan, degan qaydlarni keltiradi[11]. Biroq adabiyot tarixida epik janrlar tarixi o‘rganilar ekan, bir narsaga diqqat qaratish lozim. Hamza, Abdulla Qodiriy, Mirmuhsin Shermuhammedov 1914-1915-yillarda yozilgan kichik va o‘rta shakldagi badiiy asarlarning janrini hikoya yoki qissa deb atash o‘rniga “ro‘man” deb belgilaganlar. Ularning bunday atashlari tasodifiy bo‘lmay, chuqur mantiqqa ega. Zotan, XIX asrda roman terminining boshqa ma’nosi ham bor edi. Uni A.S Pushkin o‘z vaqtida shunday izohlagan edi: “Biz roman so‘zi ostida to‘qima tasvir orqali o‘z ifodasini topgan tarixiy davrni ko‘zda tutamiz”[12]. Ehtimol, Hamza, Abdulla Qodiriy, Mirmuhsin Shermuhammedovlar “roman” terminini, Pushkin aytganidek, badiiy tasvir orqali aks ettirilgan real hayot ma’nosida qo‘llagan bo‘lishlari mumkin. Zero, shu davrda “roman” atamasini xuddi shu ma’noda qo‘llash hollari rasm bo‘lgan edi. Shu o‘rinda Sobir Mirvaliyevning quyidagi fikrlarini berishni joiz deb bildik. Adabiyotshunos olim professor Laziz Qayumovning fikrlarini keltirib, o‘z mulohazalarini shunday izohlaydi: “O‘zbek adabiyoti tarixida romanning birinchi namunasini, shu termin, shu janr, shu tushunchaning birinchi marta olib kirilishi

[9] Fitrat. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. 4-jild (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev) – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – B.84.
[10] Jo‘raqulov U. Nazariy poetika asoslari. Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – B.148.
[11] Quronov D. Zavqimdan bir shingil. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.7.
[12] Пушкин А.С. Полное собрание сочинение. – М.,1949.Т.II. 1949. – С.92.

muhim edi. Ushbu romanlar yetuk yoki yetuk emasligi haqida gapirishdan ko‘ra, ushbu asarlarni o‘zbek romanchiligining tug‘ilishidagi dastlabki namunasi sifatida olib qarash foydalidir. Chunki Hamza o‘z asarlarida “roman” terminini qaysi ma’noda ishlatgan bo‘lmasin, u adabiyotimiz tarixida mazkur termini birinchi marta badiiy asarga nisbatan yana badiiy prozaga nisbatan qo‘llagan san’atkordir[13]. Ma’lumotlarga qaraganda, Mirmuhsin Shermuhammedovning “Befarzand Ochildiboy” asari tugallanmay qolgan, “Yangi saodat” esa qo‘lyozma holida qolib ketgan. Bizningcha ham, garchi munaqqid Naim Karimov bu asarlarni yozishga ijodkorlarning kuchi yetmagan,[14] degan fikrni aytgan bo‘lsa-da, o‘zbek realistik romanining tug‘ilishida ushbu asarlarning qiymati yuqori darajada, deb hisoblaymiz. Zotan, biz Abbat Niet haqidagi Baxtin nazariyasini yuqorida keltirib o‘tgan edik.

“O‘tgan kunlar”dan so‘ng “Kecha va Kunduz”, “Qutlug‘ qon”, “Sarob” romanlari dunyo yuzuni ko‘rdi. O‘tgan asrning 20-yillar oxiri, 30-yillar boshlarida “Obid ketmon”, “Qo‘shchinor” romanlari milly adabiyotimiz uchun sara asarlar qatoridan joy egalladi. 50-yillarda “Sinchalak”, “Uch ildiz”, “Qora ko‘zlar”, “Ufq”, “Chinor”, “Oltin zanglamas”, “Diyonat” singari romanlar el orasida mashhurlikka erishdi. Keyinroq millat qismati bilan bog‘liq Said Ahmadning “Jimjitlik”, Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor”, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanlari shuhrat qozondi. Ularda jamiyat hayotidagi fojiali taqdirlarni kuzatishingiz mumkin. O‘zbek milliy romanchiligi mustabid tuzum tazyiqlari ostida bo‘lgan vaqtda ham ulug‘ siymolarimiz haqidagi “Navoiy”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” kabi go‘zal romanlarning yaratilishi beqiyos jasorat edi.

XULOSA

Demak, roman janri uzoq yillik tarixni bosib o‘tgan bo‘lib, yillar davomida uning shakliy, poetik xususiyatlari, turlari taraqqiy etib, doimo yangilanib bordi. Uning mudom shakllanib, betinim rivojlanib borishi jahon hamda o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan atroflicha o‘rganildi. Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, roman janrining asosini voqealar rivoji va insoniy xarakterlar taraqqiyotidagi mutanosiblik tashkil etadi. Bu jahon adabiyotining ko‘p asrlik tajribasidan olingan haqiqatdir.

Jahon adabiyotida roman janrining vujudga kelishi antik davrga borib taqalar ekan, o‘zbek adabiyoti ham o‘z taraqqiyot yo‘lida necha ming asrlar oshib, qancha dovonlardan o‘tganini, ilk o‘zbek romani tug‘ilguniga qadar ham unutilmas xalq og‘zaki ijodi, shuningdek hamisha tilga olinadigan mumtoz yozma adabiyotining

[13] Mirvaliyev S. Nasr, davr va qahramon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – B.170.
[14] (Manba: WWW.bbc.co.uk/uzbek/kh-davron.uz) -adabiyotshunos olim Naim Karimov bilan bo‘lgan suhbat intervyusidan.

o‘ziga xos yo‘li hamda manbalari bo‘lganligini e’tirof etamiz. Agar o‘zbek adabiyotining tomirlari baquvvat bo‘lmaganida edi, o‘tgan asrning 20-yillarida o‘zbek romani ham dunyoga kelishi mushkul edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fitrat. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. 4-jild (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev) – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – B.84.
2.Jo‘raqulov U. Nazariy poetika asoslari. Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – B.148.
3.Mirvaliyev S. Nasr, davr va qahramon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. –B.151.
4. Mirvaliyev S. O‘zbek romani. – Toshkent: Fan, 1969. – B.29.
5. Normatov U. Roman ko‘zgusida millat taqdiri. XX asr o‘zbek adabiyoti masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. –Toshkent: Fan, 2012. – B.67.
6. Sodiq Sanjar. Ijodning o‘ttiz lahzasi. – Toshkent: Sharq, 2005. – B.174-176.
7. Quronov D. Zavqimdan bir shingil. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.7.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Uchinchi jild. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B.391.
9.Shukurov N.,Hotamov N., Xolmatov Sh., Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – B.168.